

## RAQAMLI BANKLARNING RIVOJLANISHIDA “OCHIQ BANK” TUSHUNCHASINING AHAMIYATI

**Nabiyeva Feruza Odilovna**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti, Toshkent, O‘zbekiston*  
*e-mail: [feruzanabievaa@gmail.com](mailto:feruzanabievaa@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada raqamli banklarning rivojlanishida ochiq bank (Open Banking) konsepsiyasining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ochiq bankning nazariy asoslari, API texnologiyalariga tayangan ichki, hamkorlik va ommaviy API modellarining funksional xususiyatlari hamda ularning bank–fintex ekotizimidagi roli o‘rganildi. Tahlil natijalari ommaviy API modeli raqobatni kuchaytirish, moliyaviy xizmatlarni shaxsiylashtirish va innovatsiyalarni jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ochiq bank mexanizmlarining yetarli darajada me‘yoriy-huquqiy tartibga solinmagan sharoitida banklarning “darvoza qo‘riqchisi” rolini saqlab qolishi bozor ochiqligi va innovatsion rivojga to‘sqinlik qilishi mumkinligi aniqlandi. Olingan xulosalar ochiq bankni samarali joriy etish texnologik infratuzilma bilan bir qatorda raqobatni ta‘minlovchi va mijoz manfaatlarini himoya qiluvchi huquqiy mexanizmlarni shakllantirish zarurligini asoslaydi.

**Kalit so‘zlar.** ochiq bank (Open Banking), API texnologiyalari, raqamli banklar, fintex kompaniyalari, ommaviy API, raqamli moliyaviy ekotizim, raqobat va innovatsiyalar.

### **KIRISH**

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi moliya sektorida tub tarkibiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirib, an‘anaviy bank faoliyatining transformatsiyasiga olib kelmoqda. Raqamli bank xizmatlarining kengayishi, mobil va masofaviy moliyaviy mahsulotlarga bo‘lgan talabning ortishi hamda fintex kompaniyalarining faol bozorga kirib kelishi bank tizimida yangi biznes modellari va hamkorlik mexanizmlarini shakllantirmoqda. Ushbu jarayonda ochiq bank (Open Banking) konsepsiyasi raqamli moliyaviy xizmatlar rivojini jadallashtiruvchi va bank–fintex ekotizimida raqobatni kuchaytiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ochiq bank modeli bank mijozlariga o‘z moliyaviy ma‘lumotlari ustidan nazoratni kengaytirish, uchinchi tomon provayderlari orqali innovatsion va shaxsiylashtirilgan moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkonini beradi. Amaliy dasturlash interfeyslari (API) asosida shakllangan ushbu yondashuv bank infratuzilmasining ochiqligini ta‘minlab, moliyaviy xizmatlar bozorida yangi raqobat muhiti va ochiq ekotizimlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, ochiq bank mexanizmlarining joriy etilishi me‘yoriy-huquqiy tartibga solish, ma‘lumotlar xavfsizligi va bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi kuchlar muvozanati kabi masalalarni chuqur ilmiy tahlil qilishni talab etadi. Mazkur maqolada aynan ochiq bank konsepsiyasining raqamli banklar rivojidadagi o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy hamda tahliliy jihatdan o‘rganiladi.

### **Adabiyotlar tahlili**

“Ochiq bank” tushunchasining tarixiga nazar tashlasak, ham mahalliy, ham global raqobatning vujudga kelishini tezlashtirgan omil sifatida bu atama ko‘pchilik olimlar tomonidan “oxirgi o‘n yillikning moliyaviy inqilobi” deya e‘tirof etiladi [1]. Bu tushuncha 2003 yildan boshlab Genri Chesbro tomonidan o‘rganilgan “Ochiq innovatsiya” g‘oyasining fanga kiritilishi va aniqlanishi bilan kelib chiqqan bo‘lib, unga ko‘ra, mualliflik huquqi cheklovlari, patentlar yoki boshqa nazorat mexanizmlarisiz ma‘lum turdagi ma‘lumotlar hamma uchun mavjud bo‘lishi kerak degan fikrni anglatadi.

O‘zining mashhur kitobida Chesbro ochiq innovatsiyani quyidagicha ta’riflaydi: “Ochiq innovatsiyalar qimmatli g‘oyalar kompaniya ichidan yoki tashqarisidan kelib chiqishi va kompaniya ichidan yoki tashqarisidan bozorga chiqishi mumkinligini anglatadi” [2]. Ochiq innovatsiyalar g‘oyasining mag‘zi qimmatli kashfiyotlar va innovatsiyalar ko‘pincha tashkil etilgan tashkilotlardan tashqarida, xususan, startaplardan kelib chiqishini tan olishdir. Buning mohiyati shundaki, tashqi bilimlarni o‘zlashtirish uchun kiruvchi ochiq innovatsiya strategiyalarini va ichki ishlab chiqilgan yangiliklardan, to‘liq foydalanilmayotgan innovatsiyalardan foydalanish uchun chiquvchi ochiq innovatsiya strategiyalarini qabul qilishni talab qiladi.

Chesbro nashr etilgandan beri ochiq innovatsiyalar tushunchasi akademik tadqiqotlarda ham, amaliy biznes ilovalarida ham katta e‘tiborga ega bo‘ldi. Jumladan, ochiq innovatsiyalar tamoyillarini o‘zida mujassam etgan bank sektorida o‘ziga xos o‘zgarishlarni joriy etish va ko‘rib chiqishga qaratilgan ochiq bank g‘oyasi yuzaga keldi [3]. Ochiq bank ishi deganda, bank mijozlariga tijorat banklaridagi hisoblaridagi moliyaviy ma’lumotlarini amaliy dasturlash interfeyslari yoki API orqali ixtiyoriy ravishda boshqa tashkilotlar bilan bo‘lishish imkoniyatini berish tushuniladi. Bu, asosan, tijorat banki mijozlariga ma’lumotlarni uchinchi tomon, masalan, fintex kompaniyasi bilan almashish imkoniyatini beradi [4].

Ochiq bank tor ma’noda “bozorga kengaytirilgan imkoniyatlarni taqdim etish uchun ikki yoki undan ortiq bog‘lanmagan tomonlar o‘rtasida ochiq amaliy dasturlash interfeyslari (API) orqali bank ma’lumotlari almashinadigan hamkorlik modeli”ni anglatadi [5]. Biroq, bizning fikrimizcha, ochiq bankingni ma’lum bir texnologiyadan (masalan, API) foydalanish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Chunki, ochiq bank ishi umumiy mijozlar interfeysi orqali turli moliyaviy xizmatlarni birlashtirish va rekonstruksiya qilishning kengroq tamoyiliga asoslanadi. Anna Omarini “Ochiq banking” g‘oyasini “mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish uchun ichki va tashqi g‘oyalarning erkin oqimi” imkonini beruvchi ochiq innovatsiyalar konsepsiyasi bilan bog‘laydi [6]. Ochiq bank yondashuvi, agar to‘liq amalga oshirilsa, quvur liniyasidan, vertikal paradigmadan voz kechishga va modulli tuzilishga asoslangan rivojlanayotgan ochiq ekotizimlarni yaratishga olib keladi. Ochiq bank nafaqat raqobat nuqtai nazaridan, balki mijozlarni jalb qilish nuqtai nazaridan ham innovatsion modeldir [7]. Bu “texnologiyadan iste’molchilar foydasiga bozorlarni muvozanatlash uchun foydalanishning birinchi muhim urinishidir [8]”, chunki iste’molchilar ma’lumotlarni banklarga tegishli emas, balki ularniki deb qabul qila boshlaydilar, bu esa turli moliyaviy xizmatlar provayderlari o‘rtasida oson almashish imkonini beradi.

API texnologiyasi ochiq bank mexanizmini tushunish uchun markaziy o‘rinni egallaydi. Amaliy dasturlash interfeysi (API) - bu turli komponentlar va qurilmalar o‘rtasida oson va uzluksiz aloqa o‘rnatish imkonini beruvchi standartlashtirilgan ma’lumotlar almashinuvi usulidir. APIlar axborot va kommunikatsiya texnologiyalarida tashkilotlar ichida va tashqi ishlab chiquvchilar bilan “ko‘lamli, qayta foydalanish mumkin bo‘lgan va xavfsiz” ma’lumotlar almashinuvini ta’minlash uchun keng qo‘llanilgan [9]. Bu texnologiya turli tizimlarda saqlanadigan ma’lumotlar o‘rtasidagi to‘siqlarni buzishga qaratilgan. APIlar yopiq (ichki) va ochiq (tashqi) bo‘lishi mumkin, bunda hamkorlik yoki a‘zolik modelidan tortib butunlay ommaviy bo‘lishgacha bo‘lgan ochiqlik darajasi har xil bo‘lishi mumkin [10].

Moliya sohasida API tushunchasi 2010-yillarning boshida, banklar markaziy bank infratuzilmasining turli elementlari o‘rtasida uzluksiz aloqani ta’minlash uchun ichki APIlardan foydalanganda paydo bo‘lgan [11]. Keyinchalik, ba’zi banklar ochiq bank tizimi tashabbusini ishlab chiqdilar, bu esa dasturchilar va uchinchi tomon provayderlariga bankning APIlariga ulanish imkoniyatini taklif qildi. JPMorgan Chase tanlangan Fintex kompaniyalari bilan hamkorlikni rivojlantirdi, bu esa ularga API orqali bankning mijozlari ma’lumotlariga kirish imkonini berdi [12]. Biroq, kritik nuqta ayrim tanlangan biznes hamkorlarga emas, balki barcha uchinchi tomon provayderlariga tashqi API orqali mijozlar hisoblariga kirish huquqini berish edi.


## **METODOLOGIYA**

Ushbu tadqiqotda raqamli banklarning rivojlanishida ochiq bank (Open Banking) konsepsiyasining o‘rni va ahamiyatini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy metodologik yondashuv

qoʻllanildi. Tadqiqot jarayonida umumilmiy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, ochiq bank faoliyatini shakllantiruvchi nazariy konsepsiyalar, jumladan ochiq innovatsiyalar nazariyasi, meʼyoriy-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro amaliyotga oid ilmiy manbalar qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotda banklar va fintex kompaniyalari oʻrtasidagi axborot almashinuvi jarayonlari, API texnologiyalarining funksional mexanizmlari va ularning bozor raqobatiga taʼsiri sifat tahlili asosida oʻrganildi. Olingan natijalar umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish orqali ochiq bank modelining raqamli moliyaviy ekotizimdagi strategik rolini aniqlashga xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari ochiq bank (Open Banking) modeli raqamli bank xizmatlari rivojida muhim omil ekanligini koʻrsatdi. Tahlillar shuni aniqladiki, API texnologiyalari orqali mijozlar hisob maʼlumotlariga uchinchi tomon provayderlarining kirish imkoniyati moliyaviy xizmatlarni shaxsiylashtirish, toʻlovlarni soddalashtirish va fintex innovatsiyalarini jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ochiq bank mexanizmlarining yetarli darajada tartibga solinmagan sharoitida banklar “darvoza qoʻriqchisi” rolini saqlab qolib, fintex kompaniyalarning bozorga kirishini cheklashi mumkinligi aniqlandi. Olingan natijalar ochiq bankning samarali ishlashi texnologik yechimlar bilan bir qatorda raqobatni taʼminlovchi va bozor ishtirokchilari uchun teng sharoit yaratadigan meʼyoriy-huquqiy mexanizmlarni joriy etishni talab etishini koʻrsatadi. Quyidagi 1-rasmda tahlillar davomida oʻrganilgan 3 xil API turlari, uning har bir turiga mos keluvchi model turi va uning xususiyatlari aks ettirilgan:



**1-rasm. API qoʻllanilish doirasiga koʻra tasnifi**

1-rasmdan koʻrish mumkinki, bank va moliyaviy xizmatlar ekotizimida API texnologiyalari qoʻllanilish darajasiga koʻra ichki API, hamkorlik API va ommaviy API modellariga ajratiladi. Ichki API bankning oʻz axborot tizimlari oʻrtasida maʼlumot almashinuvini taʼminlab, raqamli bank infratuzilmasining samarali ishlashiga xizmat qiladi va tashqi subyektlar uchun yopiq hisoblanadi.

Hamkorlik API modeli bank va oldindan tanlangan fintex kompaniyalari o'rtasida shartnomaviy asosda amalga oshiriladigan integratsiyani ifodalaydi, bunda bank ma'lumotlarga kirish shartlarini mustaqil belgilab, "darvoza qo'riqchisi" rolini saqlab qoladi. Ommaviy API esa ochiq bank konsepsiyasining asosiy elementi bo'lib, mijoz roziligi asosida barcha litsenziyalangan uchinchi tomon provayderlariga bank ma'lumotlariga teng va standartlashtirilgan sharoitlarda kirish imkonini beradi hamda raqobat, innovatsiyalar va shaxsiylashtirilgan moliyaviy xizmatlar rivojini jadallashtiradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ochiq bank (Open Banking) modeli raqamli banklar va fintex kompaniyalari o'rtasidagi o'zaro aloqalarning tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Tahlillar jarayonida mijozlar bank hisoblariga kirish imkoniyati ikki asosiy yo'nalishda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Birinchidan, uchinchi tomon provayderlarining mijozlarning tranzaksiya tarixiga kirish huquqi moliyaviy xizmatlarni shaxsiylashtirish, xarajatlarni tahlil qilish, jamg'arma va kredit mahsulotlarini optimallashtirish imkonini bermoqda. Bu esa raqamli moliyaviy xizmatlar sifatining oshishiga va mijozlar ehtiyojlariga mos innovatsion yechimlarning paydo bo'lishiga xizmat qilmoqda. Ikkinchidan, to'lovlarni boshlash (payment initiation) imkoniyatining API orqali taqdim etilishi fintex kompaniyalariga bank infratuzilmasiga to'g'ridan-to'g'ri ulanmasdan turib, moliyaviy bozorga kirish imkonini yaratmoqda.

Undan tashqari, ochiq bank mexanizmlarining yetarli darajada tartibga solinmagan holatida banklar ko'pincha "darvoza qo'riqchisi" (gatekeeper) rolini saqlab qolmoqda. Bunda banklar fintex kompaniyalarning mijozlar hisoblariga kirish shartlarini mustaqil belgilab, yuqori savdolashuv kuchi orqali ularning faoliyatini cheklash imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Amaliy misollar banklarning ma'lumotlarga kirishni rad etishi yoki cheklashi raqobatni susaytirishi, moliyaviy innovatsiyalarning rivojlanishini sekinlashtirishini ko'rsatadi. Ayniqsa, shartnomaviy modelga asoslangan yondashuvda banklar va fintex kompaniyalar o'rtasidagi kuchlar nomutanosibliigi ochiq moliyaviy ekotizim shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Olingan natijalar asosida xulosa qilish mumkin, API texnologiyalariga tayangan ochiq bank modeli raqamli bank xizmatlari rivojini jadallashtiruvchi muhim instrument hisoblanadi. Shu bilan birga, ochiq bankning samarali ishlashi faqat texnologik yechimlar bilan emas, balki raqobatni ta'minlovchi va barcha bozor ishtirokchilari uchun teng sharoit yaratadigan me'yoriy-huquqiy mexanizmlar bilan mustahkamlanishi zarur. Aks holda, banklarning ustun mavqei saqlanib qolib, ochiq bank konsepsiyasining asosiy maqsadi – innovatsiyalar va mijoz manfaatlarini kengaytirish – to'liq amalga oshmaydi.

## **XULOSA**

Tadqiqot natijalari ochiq bank (Open Banking) modeli raqamli bank xizmatlari rivojida muhim strategik omil ekanligini ko'rsatdi. API texnologiyalariga asoslangan ichki, hamkorlik va ommaviy API modellarining tahlili shuni aniqladiki, ochiq bankning to'liq samaradorligi aynan ommaviy API orqali ta'minlanadi. Shu bilan birga, yetarli me'yoriy-huquqiy tartibga solish mavjud bo'lmagan sharoitda banklarning "darvoza qo'riqchisi" rolini saqlab qolishi raqobat va innovatsiyalar rivojini cheklashi mumkin. Shuning uchun ochiq bankni muvaffaqiyatli joriy etish texnologik infratuzilma bilan bir qatorda samarali tartibga solish mexanizmlarini ham talab etadi.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Henry Chesbrough and Marcel Bogers "Explicating Open Innovation: Clarifying an Emerging Paradigm for Understanding Innovation" in Henry Chesbrough, Wim Vanhaverbeke and Joel West, eds., *New Frontiers in Open Innovation*, Oxford: Oxford University Press, 2014.
2. Chesbrough, Henry. (2003). *Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting From Technology*.  
[https://www.researchgate.net/publication/235700923\\_Open\\_Innovation\\_The\\_New\\_Imperative\\_for\\_Creating\\_and\\_Profitting\\_From\\_Technology](https://www.researchgate.net/publication/235700923_Open_Innovation_The_New_Imperative_for_Creating_and_Profitting_From_Technology)

3. Henry Chesbrough and Marcel Bogers "Explicating Open Innovation: Clarifying an Emerging Paradigm for Understanding Innovation" in Henry Chesbrough, Wim Vanhaverbeke and Joel West, eds., *New Frontiers in Open Innovation*, Oxford: Oxford University Press, 2014.
4. Chengbo Xie and Sijia Hu. Published in *Journal of Internet and Digital Economics*. Published by Emerald Publishing Limited. <https://www.emerald.com/insight/content/doi/10.1108/jide-03-2024-0009/full/pdf?title=open-banking-an-early-review>
5. L Brodsky and L Oakes, 'Data Sharing and Open Banking' (July 2017) 2 accessed 5 April 2019; See also Anshu Premchand and Anurag Choudhry, 'Open Banking & APIs for Transformation in Banking' (2018) *International Conference on Communication, Computing and Internet of Things (IC3IoT)* 25.
6. Omarini A.E, 'Banks and Fintechs: How to Develop a Digital Open Banking Approach for the Bank's Future' (2018) 11 *International Business Research* 23.
7. Rowland Manthorpe, 'To Change How You Use Money, Open Banking Must Break Banks' *Wired* (16 October 2017)
8. Premchand A and Choudhry A, 'Open Banking & APIs for Transformation in Banking' (2018) *International Conference on Communication, Computing and Internet of Things (IC3IoT)* 25.
9. ODI and Fingleton Report, 'Open Banking, Preparing for Lift Off' (July 2019) 11
10. Euro Banking Association, 'Open Banking: Advancing Customer-Centricity, Analysis and Overview' (Open Banking Working Group, March 2017) 20.
11. Euro Banking Association, 'Understanding the business relevance of Open APIs and Open Banking for banks: Information Paper' (May 2016) 8
12. Omarini A.E, 'Banks and Fintechs: How to Develop a Digital Open Banking Approach for the Bank's Future' (2018) 11 *International Business Research*. 32.
13. Castro D and Steinberg M, 'Blocked: Why Some Companies Restrict Data Access to Reduce Competition and How Open APIs Can Help' (Center for Data Innovation, 6 November 2017) 11